

MEN KIMMAN?



Sizning sinfingizda ko‘plab o‘g‘il bolalar va qiz bolalar bor. Endi sizni **o‘quvchilar** yoki **maktab o‘quvchilari** deb ataydilar.

Keling, tanishamiz!

Assalomu alaykum. Mening ismim Akmal. 7 yoshdaman. Men konstruktor o‘yinchoqlarni yig‘ishni, futbol o‘ynashni hamda bobomga bog‘ ishlarida yordam berishni yaxshi ko‘raman.



Assalomu alaykum. Mening ismim Madina. Men ham 7 yoshdaman. Akmalning egizak singlisiman. Menga onamga non pishirishda yordam berish va hayvonlar haqida kitoblar o‘qish yoqadi.



1. Odamlar nima uchun o‘zlarini tanishtira olishlari kerak?
2. Akmal va uning singlisi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bolalar nimaga qiziqishar ekan?

HAMMASI MEN HAQIMDA

Mening
ismim

Men yoshdaman.

Mening tug‘ilgan kunim:


Mening bo‘yim cm.

Men katta bo‘lganimda
..... bo‘lmoqchiman.

Men yoqtirgan hayvon
(chizing):



Men yoqtirgan rang:



Agar menda bitta tilak
bo‘lsa, men uni amalga
oshirardim (chizing):

Men yashaydigan
davlat bayrog‘i:





Siz oilada kimga va qanday yordam berishingizni partadoshingiz bilan o‘rtoqlashing.



Bo‘sh vaqtingizda nima bilan shug‘ullanishni yoqtirishingizni chizing.



Bu dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?

